

Oynisa Xojiyeva

**O‘ZBEK VA TURK
MAQOLLARINING
TASNIFI**

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025**

UO'K: 398.91(575.1+560)
KBK: 82.3(50'3)+82.3(5Typ)
X 19

Xojiyeva Oynisa.

O'zbek va turk maqollarining tasnifi [Matn]: lug'at / Oynisa Xojiyeva. – Toshkent: Bookmany print, 2025. – 48 b.

Tuzuvchi va tarjimon:
Oynisa Xojiyeva

Mas'ul muharrir:
Abdumurod Tilavov, filologiya fanlari nomzodi, Alisher Navoiy nomidagi TOShDO'TAU dotsenti

Muharrir:
Dr. Huseyn Kaba, Duzja universiteti Fan adabiyot fakulteti turk tili va adabiyoti bo'limi o'qituvchisi

Mazkur kitob muallifning o'zbek va turk xalqlari maqollari yuzasidan olib borgan izlanishlari, kuzatishlari va tarjimalari natijasi bo'lib, unda ikki xalqning maqollari o'zaro qiyoslangan. Bu qiyos mahsuli o'laroq bir xil, o'xshash va o'ziga xos maqollarning lug'ati shakllangan. Bu kitobda o'zbek xalq maqollarining turkcha variantini yoki aksincha, turk maqollarining o'zbekcha muqobilini topish mumkin. Kitob ilmiy jamoatchilik, talabalar, kitobxon o'quvchilar va tarjimonlar foydalanishi uchun mo'ljallangan.

ISBN 978-9910-06-729-7

© Xojiyeva O., 2025.
© "Bookmany print" nashriyoti, 2025.

Tasavvur qiling, har bir xalq – ulkan, sershox daraxt. Uning ildizlari tarixning qorong‘i qa‘rigacha kirib borgan, tanasi esa ne-ne bo‘ronlar, dovullarning guvohi. Biz – bugungi avlodlar esa o‘sha daraxtning yam-yashil barglari, shoxlarida ochilgan gullari misolmiz. Xo‘sh, bizni o‘tmish bilan bog‘lagan, ildizdan bargning uchigacha oziqlantirayotgan kuch nima? Xalq adabiyoti, xususan, maqollar – ana o‘sha ildizlardan barglarga, ya‘ni qalblarga oqib keluvchi hayot sharbati, ajdodlarning asriy tafakkur javharidir.

Ular shunchaki hikmatli so‘zlar emas. Ular – marjonga aylangan ko‘z yoshi, so‘zlarda ingan xursandchilik hayqirig‘i, yillar davomida orttirilgan tajribalar majmui, asrlar osha aks-sado bergan kulgi va toshga aylangan sabrdir. Shuning uchun ham xalq uni “so‘zning gultoji” deya e‘zozlaydi. Har bir maqol – kichkinagina sandiqcha. Ichini ochsangiz, goh otaning mehrli nasihati, goh onaning bedor tunlari, goh sarkardaning g‘alaba na‘rasi, goh dehqonning zaminga aytgan sirlari chiqadi. Ular millionlab lablarda sayqallanib, avlodlar imtihonidan o‘tib, eng sof va tiniq hoida bizgacha yetib kelgan. Maqollar nafaqat xalqning xotirasi, balki uning ma‘naviyatini tashqi ta‘sirlardan asrovchi mustahkam bir qalqondir.

Bugun-chi? Raqamli shovqin, har soniyada yangilanuvchi axborot tasmlari, oniy “yulduzlar” va omonat qadriyatlar asrida o‘sha qadimiy ildizlarning ovozi eshitiladimi? Bir lahzalik hislarga qurilgan shiorlar orasida ming yillarning tajribasi orqali sug‘orilgan hikmatlar kimga kerak?

Aksincha, aynan bugun ularga ehtiyoj har qachongidan ham yuqori. Adashganda yo‘l ko‘rsatuvchi mayoq, ikkilanganda tayanch bo‘luvchi ustun, ko‘ngil cho‘kkanida qanot bo‘luvchi qudrat aynan shu bir og‘iz dono so‘zda mujassam. Qo‘lingizdagi ushbu kamtarona mehnatimiz mahsuli – shunchaki maqollarning qiyosidan iborat emas. Bu – o‘sha qudratli ildizlarga qaytish, zamonamizning bo‘ronlarida chayqalmaslik uchun ajdodlar hikmatidan kuch olishga bir chorlovdur.

O‘z ildizlarimizni anglash yo‘lidagi bu sayohat esa beixtiyor bizni qo‘shni va qardosh bo‘lgan boshqa xalqlarning hikmat xazinasiga ham nazar solishga undaydi. Axir, daraxtlarning

shoxlari har xil bo'lsa-da, ko'pi bir zaminda o'sib, bir buloqdan suv ichadi. Xuddi shu kabi, xalqlarning donoligi ham o'ziga xos jihatlarga ega bo'lishi bilan birga, ularning tub manbasi bir – umuminsoniy tajribadir.

Ayniqsa, tarixi, taqdiri va tili tutash o'zbek va turk xalqining maqollarini yonma-yon qo'yib o'rganish – go'yo yer ostida bir-biriga chirmashib ketgan ikki qudratli ildizni kashf etishdek gap. Bunda biz ham umumiy tomirlarimizni, ham har bir xalqning dunyoni idrok etishidagi o'ziga xosliklarni yaqqol ko'ramiz.

O'zbek-turk maqollarining tasnifi

O'zbek va turk xalqining tili, e'tiqodi, madaniyati va dunyoqarashi qanchalik yaqin bo'lmasin, folklor janrlari orasida, xususan, maqollarda o'zaro farqlarning bo'lishi tabiiy hol. Bu ikki xalqning genetik aloqalarini so'roq ostida qoldirmaydi, aksincha, har bir hududning takrorlanmas o'zligiga chizgi tortadi. O'zaro mushtarak janrlar fonida ular orasidagi nodirliklar har bir xalqning boshqa biror millatda o'xshashi uchramaydigan milliy ruhiyatini ochib beradi.

Aytish kerakki, maqollarning leksik, fonetik jihatdan alohidaligi faqat ikki xalq orasida emas, balki bir xalq maqollarining areal oziga xosligida ham namoyon bo'ladi. Masalan, turkcha maqollar qo'llanish hududiga ko'ra bir-biridan farqlanishi mumkin. Bu, avvalo, turk lahjalaridagi fonetik va leksik farqlarda ko'rinadi. Bundan tashqari, Turkiyada emas, dunyoning turli burchaklarida yashagan turk tilida so'zlovchi millatlar og'zaki ijodida ham maqollarda tafovutlar ko'zga tashlanadi.

Aynan shunday farqlanish o'zbek xalq maqollari orasida ham kuzatiladi. Faqat bu farqlar leksik jihatdan ko'p emas, turli shevalarda maqollarning turlicha talaffuz qilinishi bilan bog'liq fonetik tafovutlardan iborat.

Shuning uchun ikki xalq orasidagi maqollarning o'zaro o'xshashligini ham, farqlanishini ham adekvat deb hisoblab, ularning xossalari, qo'llanish doirasi, formal va logik xususiyatlari, geografik farqlari, maqsadlari va funksiyalariga ko'ra har tomondan o'rganib, ularni shartli ravishda uchta katta guruhga ajratish mumkin, deb o'ylaymiz:

Bir xil (analogik) maqollar.

O'xshash (sinonimik) maqollar.


O'ziga xos (monologik) maqollar.

Bir xil maqollar

Bu guruhga har ikki xalqning folklorida mavjud bo'lgan ayni maqollarni kiritish mumkin. Ular ham shaklan, ham mazmunan bir-birini aynan takrorlaydi: *“Akıl yaşta değil, baştadır” – “Aql yoshda emas, boshda(dir)”*.

Bu turdagi maqollar har ikki xalqda ayni mazmunni ifodalab, ayni maqsadda qo'llaniladi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, analogik maqollar boshqa turdagi maqollarga nisbatan qadimiyroqdir. Ularning tarixiy-genetik jihatdan bir davr va bir madaniyatga oidligini taxmin qilish mumkin; yaratilish tarixi esa umumturkiy madaniyatga borib taqalsa, ajabmas. Shu sababdan analogik maqollar u yoki bu ko'rinishda turli qadimiy manbalardan o'rin olganini ko'rishimiz mumkin. Xususan, Mahmud Koshg'ariyning *“Devoni lug'otit-turk”* asaridan o'rin olgan maqollarning aksari bugungi kunda nafaqat o'zbek va turk folklorida, balki barcha turkiy xalqlar adabiyotida uchraydi. Aynan shu sababdan, o'zbek va turk folklorida bir-birini takrorlovchi bunday maqollarning boshqa turkiy xalqlarda ham jiddiy o'zgarishga uchramagan holda qo'llanilishiga guvoh bo'lamiz. Ular o'zbek xalq maqolining turk xalqiga o'tishi yoki aksi emas, balki bir zamonlar bir xalq bo'lgan turkiylarning o'z otaso'zlaridir. Ularda turkiy xalqlarning ayni hayot tarzi, o'xshash dunyoqarashi, umumiy an'analari va yagona madaniy merosi o'z aksini topadi.

	O'zbekcha	Turkcha
1.	Adabni adabsizdan o'rgan.	Edebi edebsizden öğren.
2.	Aqlsiz do'stdan aqlli dushman afzal.	Akıllı düşman, akılsız dosttan yeğdir.
3.	Arslon qarisa, sichqonning inini poylar.	Arslan kocayınca sıçan deliği gözetir.



O'zbek tilida bu maqolning "Bo'ri qarisa ovi qochar", "Burgut qarisa, sichqonchi bo'lar" kabi variantlari ham bor. Sh. Shomaqsudov, Sh. Shorahmedovlarning bu "Ma'nolar maxzani" kitobida bu maqolning boshqa bir muqobili ham keltirilgan: "Bir tangamning borida Xolmat farang deydi, Bir tangamning yo'g'ida Xolmat garang deydi".

4.	Arqog'ini ko'rib bo'zini ol, Onasini ko'rib qizini.	Anasına bak kızını al, kenarına bak bezini al.
5.	Asralgan ko'zga xas tushar.	Sakınılan göze çöp batar.
6.	Arava sinsa ra'yikorchi ko'payar.	Araba devrilince yol gösteren çok olur.
7.	Avval o'yla, keyin so'yla.	Önce düşün, sonra söyle.
8.	Aybsiz do'st izlagan do'stsiz qolar.	Ayıpsız dost arayan, dostsuz kalır.
9.	Aytgan yerga erinma, aytmagan yerda ko'rinma.	Çağrılan yere erinme, çağrılmayan yere görünme.
10.	Aytilgan so'z kumush bo'lsa, Aytilmagan so'z – oltin.	Söz gümüşse sükut altındır.
11.	Achchiqni achchiq kesar.	Acı acıyı bastırır. / Acı acıyı keser.
12.	Baliq boshidan sasir.	Balık baştan kokar.
13.	Bemahal qichqirgan xo'rozning boshini kesarlar.	Vakitsiz öten horozun başını keserler.
14.	Bemor tuzalgisi kelsa, Tabib o'z oyog'i bilan kelar.	İyi olacak hastanın, doktor ayağına gelir.
15.	Besh barmoq barobar emas. / Besh qo'l barobar emas.	Beş parmak bir değil.
16.	Bir gul bilan yoz bo'lmas.	Bir çiçekle yaz olmaz.
17.	Bir musibat ming nasihatdan yaxshidir.	Bir musibet bin nasihattan yeğdir.
18.	Bir so'zla, ikki tingla.	Bir söyle iki dinle.
19.	Bir qarg'a bilan qish kelmas.	Bir kargay ile kış gelmez. / Bir bulutla kış gelmez.

20.	Bir qo'ltiqqa ikki tarvuz sig'mas.	Bir koltuğa iki karpuz sığmaz.
		
21.	Bir qinga ikki qilich sig'mas.	Bir kına iki kılıç sığmaz.
22.	Bir qizni ming kishi istar, bir kishi olar.	Bir kızı bin kişi ister (de) bir kişi alır.
23.	Birovga choh kavlasang, o'zing yiqilasan.	El için kuyu kazan evvela kendi düşer.
24.	Birovning ishi – ko'ngilning xushi.	Elin vergisi, gönül sevgisi.
25.	Bol degan bilan og'iz chuchimas.	Bal bal demekle ağız tatlanmaz.
26.	Bol tutgan barmog'ini yalar (Hunari bor – ermagini). / Bol sotgan barmog'ini yalar.	Bal tutan parmağını yalar.
27.	Bolaga ish buyur, Orqasidan o'zing yugur.	Çocuğa iş buyuran, ardınca kendi gider.

28.	Bolali uyda g'iybat yo'q.	Çocuğun bulunduğu yerde gıybet olmaz.
29.	Bolta tegmagan yog'och bo'lmas.	Balta değmedik ağaç olmaz.
30.	Boy kiysa – “qutlug' bo'lsin”, Kambagal kiysa – “qaydan olding?”	Zengin giyerse “sağlıcakla giy”, fakir giyerse “nerden buldun” derler.
31.	Boyning xo'rozi ham tuxum qilar. / Boyning xo'rozi o'rdak olar. / Boyning mushugi quyon ovlar.	Zenginin horozu bile yumurtlar. / Zenginin tavuğu iki sarılı yumurtlar.
32.	Bosh yorilsa – bo'rk ichinda, Qo'l sinsa – yeng ichinda.	Baş yarılır börk içinde, kol kırılır kürk (yen) içinde.
33.	Bosh omon bo'lsa, bo'rk topilar. / Bosh omon bo'lsa, do'ppi topilar.	Baş sağ olursa börk çok bulunur.
34.	Boqsang – bog', boqmasang – tog'. / Bog' – boqsang bog', Boqmasang – quruq tog'.	Bakarsan bağ, balmazsan dağ (olur).
35.	Bugungi ishni ertaga qo'yma.	Bugünün işini yarına bırakma (koyma).
36.	Bo'ri qarisa, itga kulgi bo'lar.	Kurt kocayınca köpeğin maskarası olur.
37.	Bo'sh qop tik turmas.	Boş çuval dik durmaz.
38.	Daraxtni qurt yeydi, insonni – dard.	Ağacı kurt, insanı dert yer.
39.	Daraxt yaprog'i bilan ko'rkam, Odam — mehnati bilan.	Ağaç yaprağıyla güzeldir.
40.	Dunyoni suv bossa o'rdakka ne g'am?	Dünyayı sel bassa ördeğe vız gelir.

41.	Do'sting ming bo'lsa ham oz, dushmaning bir bo'lsa ham kop.	Bin dost az, bir düşman çok.
42.	Do'st achitib gapirar.	Dost acı söyler.
43.	Do'st boshqa qaraydi, dushman oyoqqa.	Dost başa düşman ayağa bakar.
44.	Er qadrini er bilar, zar qadrini zargar.	Adam adam kadrini, sarraf altın kadrini bilir.
45.	Folga ishonma, folsiz yurma.	Fala inanma, falsız da kalma.
46.	Gul tikansiz bo'lmas.	Gül dikensiz olmaz.
47.	Gulni sevgan tikaniga ham chidaydi. / Gulni sevgan tikanini ham sevadi.	Gülü seven dikenine katlanır.
48.	Gung bolaning tilini kar onasi tushunar. / Gung qizning tilini onasi tushunar.	Dilsizin dilinden anası anlar.
49.	Go'zal ko'rish – ko'zga savob.	Güzele bakmak sevaptır.
50.	Ip ingichka yeridan uziladi.	İp inceldiği yerden kopar.
51.	It egasini qopmaydi.	Köpek sahibini ısırmaz.
52.	It itning quyrug'ini bosmas.	İt itin kuyruğuna (ayağına) basmaz.
53.	It hurar – karvon o'tar.	İt ürür, kervan yürür.
54.	Ishonmagin do'stingga, somon tiqar po'stingga.	Güvenme dostuna, saman doldurur postuna.
55.	Jafo chekmagan safo qadrini bilmas.	Cefa çekmeyen sefa kadrini bilmez.

56.	Katta baliq kichkina baliqni yeydi	Büyük balık küçük balığı yer.
		
57.	Kechuvda ot almashtirilmaydi.	Dereyi geçerken at değiştirilmez.
58.	Ko'rpangga qarab oyoq uzat.	Ayağını yorganına göre uzat.
<i>O'zbek maqollarining izohli lug'ati "Hikmatnoma"da "Ko'rpangga qarab oyoq uzat" maqolining etimologiyasi bir rivoyat bilan bog'lanadi. Aytilishicha, qadim zamonda bir zolim podsho bo'lgan ekan. U xalqni xilma-xil yo'llar bilan qiynab, azoblab, shundan o'zi rohatlanarkan. Kunlarning birida u: "Endi qanday qilsam xalqni qiynab, rohatlanaman" deb o'ylab-o'ylab, bir hiyla topibdi. Xalqqa: "Mening bo'yimga loyiq ko'rpa tikib kelinglar!" deb buyuribdi. Ertasiga odamlar podshoning bo'yiga taxminan tikkan ko'rpalarini ko'tarib, birin-ketin saroyga kirib kela boshlabdilar. Podsho ko'rpalarni birma-bir ustiga yopib ko'ra boshlabdi. Ko'rpa agar uzunroq bo'lsa, uni ataylab bosh tomoniga tortib, oyoqlarini cho'zib: "Iye, bu kalta-ku!" deb, agar kaltaroq bo'lsa, jo'rttaga oyoqlarini yig'ib olib: "Iye, bu uzun-ku!" deb baqiraveribdi va ko'rpalarning egalarini qirq darradan</i>		

urishni buyuribdi. Shunda navbat bir cholga kelibdi. Podsho u keltirgan ko'rpani ustiga yopibdi-da, bosh tomonga tortib, oyoqlarini tizzasigacha ochib: "Iye, bu kalta-ku!" deb baqirgan ekan, sabr kosasi to'lib turgan chol qo'lidagi hassasi bilan podshoning oyoqlariga bir tushiribdi. Podsho birdan cho'chib, oyoqlarini yig'ib olibdi-da, cholga: "Nega oyog'imga urding?!" deb o'shqiribdi. Shunda chol: "Ko'rpangga qarab oyoq uzat-da!" debdi.

59.	Ko'p so'z yolg'onsiz, ko'p pul haromsiz bo'lmas.	Çok söz yalansız, çok para haramsız olmaz.
60.	Ko'p yashagan bilmas, ko'p ko'rgan bilar.	Çok yaşayan bilmez, çok gezen bilir.
61.	Mevali daraxtning boshi xam.	Ağacın meyvesi olunca başını aşağı salar.
62.	Mol olasi sirtida, odam olasi ichida.	Adamın alası (alacası) içinde, davar alacası dışında.
63.	Odam odam soyasida odam bo'lur.	Adam adam sayesinde adam olur.
64.	Oltin balchiqqa tushsa ham – oltin.	Altın çamura düşmekle kıymetten düşmez.
65.	Oltin zanglamas.	Altın, pas tutmaz.
66.	Olim bo'lish oson, odam bo'lish qiyin.	Alim olmak kolay, adam olmak zor.
67.	Oq it, qora it – bari bir itdir.	Ak köpek, kara köpek, ikisi de köpekdir.
68.	Oq qo'yni ham o'z oyog'idan osarlar, Qora qo'yni ham.	Her koyun kendi bacağından asılır.
69.	Oq tanga – qora kunga.	Ak akçe kara gün içindir.
70.	Oqin suv harom bo'lmas.	Akar su yosun tutmaz.
71.	Ortiqcha mol ko'z chiqarmas.	Fazla mal göz çıkarmaz.

72.	Ot minganniki, qilich tutganniki.	At binenin, kılıç kuşananın.
73.	Otning o'limi – itning bayrami.	Atın ölümü itin bayramıdır.
74.	Oz so'zla, ko'p tingla.	Az söyle, çok dinle.
75.	Och ayiq o'ynamas.	Aç ayı oynamaz.
76.	Och qornim – tinch qulog'im.	Azıcık aşım, ağrısız başım.
77.	Och tovuqning tushiga tariq kiradi.	Aç tavuk rüyasında darı görür. / Aç tavuk kendini arpa ambarında sanır.



78.	Payshanbaning kelishi chorshanbadan belgili.	Perşembenin gelişi çarşambadan bellidir.
79.	Pichoq o'z sopini kesmaydi.	Bıçak kendi sapını kesmez.
80.	Pul – qo'lning kiri.	Para dediğin el kiri.

81.	Qarasang – bog‘, qaramasang – tog‘.	Bakarsan baғ, bakmazsan daғ olur.
82.	Qilich qinini kesmas.	Kılıç kınını kesmez.
83.	Qo‘shnida pishar, Bizga ham tushar.	Komşuda pişer, bize de düşer.
84.	Sen menga tegma, men senga tegmayman.	Değme bana, değmeyeyim sana.
85.	So‘raganning bir beti qora, bermaganning ikki beti qora.	İsteyenin bir yüzü kara, vermeyenin iki yüzü.
86.	Tekin sirka – boldan totli.	Bedava sirke baldan tatlıdır.
87.	Tegirmon navbati bilan.	Değirmene gelen nöbet bekler.
88.	Temirni nam chiritadi, insonni – g‘am.	Demir nemden çürür, insan gamdan.
89.	Temirni qizig‘ida bos.	Demir kızgın iken dövülür. / Demir tavında dövülür.
90.	Teshik munchoq yerda qolmas.	Delikli boncuk (taş) yerde kalmaz.
91.	Tikansiz gul bo‘lmas.	Dikensiz gül olmaz.
92.	Til ko‘ngil tarjimonidir.	Dil gönlün tercümanıdır.
93.	Tilning suyagi yo‘q, (og‘izning jiyagi).	Dilin kemiği yok.
94.	Tig‘ yarasi tuzalar, til yarasi tuzalmas.	Bıçak yarası unutulur, dil yarası unulmaz.
95.	Tishlong‘ich it tishini ko‘rsatmas.	Isıracak it dişini göstermez.
96.	Toma-toma ko‘l bo‘lar.	Damlaya damlaya göl olur.

97.	Tor yerda osh yegandan – keng joyda musht yegan yaxshi.	Dar yerde yemek yemektense, geniş yerde dayak yemek evladır.
98.	Tog' boshi tumansiz bo'lmas, er boshi – xayolsiz.	Dağ başı dumansız olmaz. / Dağ başından duman eksik olmaz.
99.	Tog' tog' bilan qovushmas, odam odam bilan qovushar.	Dağ dağa kavuşmaz insan insana kavuşur.
100.	Tuyaga yantoq kerak bo'lsa, bo'ynini cho'zar.	Deveye burç gerek olursa boynunu uzatır.
101.	To'g'ri so'z achchiq bo'lur.	Doğru söz acıdır.
102.	Tuyadan katta fil bor.	Deveden büyük fil var.
103.	Ulug'ning gapini olmagan uvlar.	Ulu sözü dinlemeyen, uluyakalır. / Ulu sözü dinlemeyen ulur.
104.	Uy olma, qo'shni ol.	Ev alma komşu al.
105.	Uzumini ye bog'ini so'rama.	Üzümü(nü) ye de bağını sorma.

Bir turk manbasida esa bu maqolning etimologiyasi uzum bog'ini sotib olmoqchi bo'lgan ikki qo'shni va ular orasidagi ayyorona munosabat bilan bog'lanadi. Unga ko'ra, Emmi degan mashhur uzumchi bo'lib, u bog'idan xabar ololmayotganligi sababli uzumzorini istab-istamay sotishga qaror qiladi. Oldindan bog'ning uzumlarini yoqtirib yurgan qo'shnisi xaridor bo'libdi, lekin Uzumchi Emmi unga sotishni istamabdi. Shunda qo'shnisi nochor Kerem Og'a degan boshqa bir qo'shnini o'rtaga qo'yibdi. "Bog'ni mening o'rnimga sen ol, keyin men sendan sotib olaman" debdi. Bog'ni olishni xayoliga ham keltirmagan Kerem og'a Uzumchi Emmi bilan savdolashib, bog'ni olibdi va narigi qo'shniga xabar yuboribdi. Qo'shni kelib Kerem og'adan bog'ning narxini so'rasa, mujmal-mujmal javob beribdi. Oxiri qo'shnining sabri chidamay, "Bog' o'zi menikimi?" degan

savoliga javoban Kerem Og'a unga bir bosh uzum uzatib "Ma, ol shuni" debdi va ketidan "Uzumini ye, bog'ini so'rama" deb qo'shib qo'yibdi.

106.	Vovullagan it qopmaydi.	Ürüyen köpek ısırılmaz. / Çok havlayan köpek ısırılmaz.
107.	Yaxshi qo'shni uzoq qarindoshdan yaxshi.	Hayırlı komşu, hayırsız akrabadan iyidir.
108.	Yaxshilikka yaxshilik – har kishining ishi, yomonlikka yaxshilik – er kishining ishi.	İyiliğe iyilik her kişinin kârı, kötülüğe iyilik er kişinin kârı.
109.	Yig'lasa onam yig'laydi, qolgani yolg'on yig'laydi.	Ağlarsa anam ağlar, kalanı yalan ağlar.
110.	Yolg'onchining uyi kuysa ham, hech kim ishonmaydi.	Yalancının evi yanmış, kimse inanmamış.
111.	Yotgan ilonning quyrug'ini bosma.	Uyuyan yılanın kuyruğuna basma.
112.	Yotib yeganga tog' chidamaydi.	Hazıra dağ dayanmaz.
113.	O'lim – haq, meros – halol.	Ölüm hak, miras helal.
114.	O'ng qo'ling berganini chap qo'ling ko'rmasin (bilmasin).	Sağ elinin verdiğini sol elin görmesin.
115.	O'g'il tog'aga, qiz ammaga tortadi.	Oğlan dayıya, kız halaya çeker.
116.	Chumchuqdan qo'rqqan tariq ekmas.	Serçeden korkan darı ekmez.

O'xshash maqollar

Bu tipdagi maqollar qatoriga ham taxiriy-genetik jihatdan yagona ildizdan o'sib chiqqani ma'lum, ammo vaqt o'tishi bilan ba'zi shakliy o'zgarishlarga uchragan otaso'zlarini kiritish mumkin. Bunda maqollar asl vazifasini saqlab qolgan holda, har bir xalqning milliy koloriti, geografik o'ziga xosligi, shu xalqni tamsil etuvchi urf-odat va an'analariga muvofiq tarnsformatsiyaga uchraydi. Lekin bu o'zgarish maqolning mazmuniga jiddiy ta'sir ko'rsatmaydi. Asarlarni tarjima qilish jarayonida ham bunday maqollarni bir-birining o'rnida qo'llash mumkin, bu adekvat tarjima talablariga to'la javob beradi. Chunki bunday maqollarda sinonimiya kuzatiladi, ularning shaklida kichik farqlar ko'zga tashlansa-da, maqol ma'nosi, qo'llanilish maqsadi va doirasi deyarli o'zgarishsiz qoladi.

	O'zbekcha	Turkcha
1.	Adolat qilichi kesgan qo'l og'rimas.	Şeriatın kestiği parmak acımaz.
2.	Ahmoqqa aql o'rgatmoq, toshga don sepmoq bilan barobar.	Cahile söz geçirmek, deveye hendek atlatmaktan güçtür.
3.	Aql aqldan quvvat oladi.	Akıl, akıldan üstündür.
4.	Aql bozorda sotilmas.	Akıl parayla satılmaz.
5.	Aql – odamning oltin toji.	Akıl kişiye sermayedir.
6.	Aql yoshda emas, boshda.	Akıl olmayınca ne yapsın sakal.
7.	Aqlsiz bosh oyoqqa tinim bermaydi.	Akılsız başın cezasını (zahmetini) ayaklar çeker.
8.	Arzonning sho'rvasi tatimas.	Ucuz etin çorbası tatsız olur. / Ucuz etin yahnisi yavan olur.
9.	Arpa ekib bug'doy kutma. / Arpa ekan arpa olar, Bug'doy ekkan bug'doy olar.	Arpa eken buğday biçmez.

10.	Arpasiz ot dovon osholmas.	Arpa verilmeyen at, kamçı zoruyla yürümez.
11.	Arslonning bo'kirkani – sichqonning o'lgani. / Arslonning bo'kirkani – to'ng'izning o'lgani.	Arslan kükrerse atın ayağı kösteklenir. / Arslan kükrerse beygir titrer.
12.	Arzon beillat emas, qimmat behikmat emas.	Ucuzdur vardır illeti, pahalıdır vardır hikmeti.
13.	Arg'amchiga qil quvvat.	Bir kılın örmeye faydası var.
14.	Aytuvchi ahmoq bo'lsa, Tinglovchi dono kerak.	Söyleyenden dinleyen arif gerek.
15.	Baxtsiz quduqqa kirsang, qum yog'ar.	Bahtsızın bağına yağmur, ya taş yağar ya dolu.
16.	Balchiqqa tosh otsang, betingga sachraydi.	Çirkefe taş atma üstüne sıçrar.



17.	Beayb – Parvardigor.	Hatasiz kul olmaz.
18.	Bekor o'tirguncha, bekor ishla.	Boş gezmekten bedava çalışmak yeğdir.
19.	Bepul kafan topilsa, o'lmoq kerak.	Bedava sirke baldan tatlıdır.
20.	Berib yaxshi ko'ringuncha, Bermay yomon ko'rin.	Verip (de) pişman olmaktan, vermeyip (de) düşman olmak yeğdir.
21.	Bergan xudoga yoqibdi.	Veren eli herkes öper. / Veren eli kimse kesmez.



Turk madaniyatida qo'l o'pish an'anasi uzoq tarixga ega. Qo'l o'pish odati turk madaniyatining chuqur ildiz otgan va alohida ahamiyat kasb etuvchi elementidir. Qo'l o'pish hurmat, mehr-muhabbat va sadoqat timsoli bo'lib, ayniqsa, bayramlarda, to'ylarda, dafn marosimlarida, kattalarga hurmat-ehtirom bildirish maqsadida bajariladi. Qo'lni o'pib,

so'ng peshonaga olib borish "Mening qalbmida alohida o'rningiz bor" ma'nosini bildiradi va kattalarga samimiy hurmat belgisi hisoblanadi.

Usmonlilar davrida sultonning qo'lini o'pish sadoqat ifodasi hisoblansa, Anadoluda kattalarning qo'lini o'pish fazilat va yaxshi odob sanalgan. Bayramlarda, asosan, qo'l o'pib bayram uchun xarjlik puli olish odati keng tarqalgan.

Yuqoridagi maqolda so'z o'yini yordamida "qo'l o'pish" ham raqibining kuchi tan olish, ham unga hurmat-ehtirom ko'rsatish mazmuni ifodalangan.

22.	Bersang – yeydi, ursang – o'ladi.	Ver yiyeyim, ört uyuyayım; gözle, canım çıkmasın. / (Verirsen doyur, vurursan duyur).
23.	Besh barmoqning birini tishlasang, bari og'rir.	Beş parmağın hangisini kessen acımaz?
24.	Bilmagan ayb emas, Bilishga tirishmagan ayb. / Bilmaganni so'rab o'rgangan – olim, Orlanib so'ramagan – o'ziga zolim.	Bilmemek ayıp değil, sormamak (öğrenmemek) ayıp.
25.	Bir kattaning gapiga kir, Bir – kichikning.	Bir senden büyüğün, bir de senden küçüğün sözünü dinle.

26.	Bir kun tuz berganga qirq kun salom ber.	Bir fincan kahvenin kırk yıl hatırı var.
-----	--	--



Bu ikki maqolda o'zbek va turk xalqining mehmondo'stlik an'analari o'z aksini topgan. Ma'lumki, turk xonadonida mehmon bo'lgan inson qahva ichmasdan ketmaydi. Shuning uchun turkcha maqolda bosh obraz sifatida qahvaga urg'u berilyapti. Turk mehmonnavozlik an'anasida qahvaning alohida o'rni bor. Mehmonlarni qahva bilan siylash alohida an'anaga aylanib ulgurgan. Hatto, qiymatli mehmonlarga alohida hurmat ma'nosida kundalik ishlatiladigan finjonlarda emas, maxsus finjonlarda qahva taqdim etish odati ham mavjud. Turkiyadagi qahva va qahvaxonalar madaniyati XIV asr Usmonli imperiyasiga borib taqaladi. Turk qahvasi Turkiya, Sharqiy O'rta yer dengizi va Janubi-Sharqiy Yevropada mashhur. Qahvaxonachilik madaniyati sobiq Turk imperiyasining katta qismida kuchli madaniy ta'sirga ega edi. G'arbiy Yevropa va Sharqiy O'rta er dengizidagi qahvaxonalar nafaqat ijtimoiy markazlar, balki badiiy va intellektual markazlar ham bo'lgan.

Turk qahvasi adabiyotga chuqur ta'sir ko'rsatgan. Bu an'ana bilan bog'liq his-tuyg'ularni tasvirlash uchun ko'plab

she'rlar va qo'shiqlar yozilgan. Tasavvuf she'riyatida, diniy marosimlarda, miniatyura hunarmandchiligida va rasmlarda ham qahva bilan bog'liq lavhalar uchraydi.

“Turk qahvasi madaniyati va an'anasi” 2013-yildan boshlab UNESCOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi Reprezentativ ro'yxatiga kiritilgan.

27.	Bir ko'rgan – bilish, Ikki ko'rgan – tanish.	Bir görüş, bir kör biliş. / İlk gördüğün biliş, ikincisi tanış.
28.	Bir qozonda ikki qo'chqorning boshi qaynamas.	Bir çöplükte iki horoz ötmez.
29.	Bir tish og'risa, yonidagisi ham og'riydi.	Bir göz ağlarken öbür göz gülmez.
30.	Bir shaltoqning ishini Yigirma epchil epmay olmas.	Bir deli kuyuya taş atmış, kırk akıllı çıkaramamış.
31.	Bir chimdim tuz bir xum asalni buzar. / Bir qorin moyni bir qumaloq buzar.	Bir baş soğan bir kazanı kokutur.
32.	Birin-birin ming bo'lur, Toma-toma ko'l bo'lur.	Damlaya damlaya göl olur.
33.	Birovga kulma zinhor, Senga ham kulguvchilar bor.	Gülme komşuna, gelir başına.
34.	Birov – tosh, birov – gul, o'z joyida ikkovi ham kerak.	Cambaz iptе, balık dipte gerek.
35.	Birov uchun birov qozon osmas.	El kazanı ile aş kaynamaz.
36.	Birovning oshiga qaragan och qolar.	Elden gelen geç gelir, onda da karnın aç kalır. / Elden gelen öğün olmaz, o da vaktinde bulunmaz.

37.	Birovning qo'li bilan tikan yulish oson.	El eliyle yılan tutulur. / El eliyle yılan tut, onu da yalan tut.
38.	Biz o'g'rilikka chiqsak, oydin bo'lar.	Öksüz hırsızlığa çıkarsa ay ilk akşamdan doğar.
39.	Bolali uyda sir yotmas. / Bolali uyda gap yotmas.	Çocuktan al haberi.
40.	Bolali uyda g'iybat bo'lmas.	Çocuğun olduğu yerde kov olmaz.
41.	Bolta sopidan o'zmas, Yigit – to'pidan.	Balta sapını yonamaz. / Balta sapını kesmez.
42.	Borida poldiring-poldiring, yo'g'ida qarab o'ltiring.	Bol-bol yiyen, bel-bel bakar.
43.	Borlik nimalar yedirmas, Yoqlik nimalar dedirmas.	Var varlatır, yok söyletir. / Aç ne yemez, tok ne demez.
44.	Bosh boshlar, oyoq tashlar.	Baş nereye giderse, ayak da oraya gider.
45.	Boshga tushganni ko'z ko'rar. / Boshga tushganni ko'z tortar.	Başa gelen çekilir. / Başa yazılan gelir.
46.	Boylik o'zingga dushman. / Davlating – do'sting.	Mal adama hem dost, hem düşmandır.
47.	Bugun – sizdan, ertaga – bizdan.	Bugün bana ise yarın sana.
48.	Bugungi tuxum ertangi tovuqdan yaxshi.	Bugünkü tavuk yarınki kazdan iyidir.
49.	Bukilgan boshni qilich kesmaz.	Eğilen baş kesilmez.

50.	Bulbul uchgandan so'ng, Oltin qafasni o't olsin.	Bülbülü altın kafasa koymuşlar, "ah vatanım" demiş.
51.	Burun chiqqan quloqdan, keyin chiqqan muguz o'zadi.	Boynuz kulağı geçer.
52.	Bug'doy noning bo'lmasa ham, Ochiq yuzing bo'lsin. / Go'sht-yog' berma, yaxshi til ber.	Buğday ekmeğin yoksa buğday dilin de mi yok?
53.	Dalidan to'g'ri xabar.	Deliden al uslu haberi.
54.	Dardsiz bosh, kafansiz o'lim bo'lmas.	Ağrısız baş olmaz.
55.	Dehqon yomgir tilaydi, kulol ayoz tilaydi.	Çiftçiye yağmur, yolcuya kurak; cümleinin muradını verecek Hakk.
56.	Egilgan daraxtga suyanma, Seni ham egar.	Ağaca dayanma kurur, insana dayanma ölür.
57.	El og'ziga elak tutub bo'lmaydi.	El ağzı torba değil ki (çekip) büzesin.
58.	Gadoning xurjuni to'lsa ham, ko'zi to'ymas.	Dilencinin torbası dolmaz.
59.	Gado gadoni ko'rolmas.	Dilenci dilencini istemez, ev sahibi ikisini de. / Misafir misafiri (dilenci dilenciyyi) istemez (sevmez), ev sahibi ikisini de.
60.	Gap bilan osh pishmas.	Laf torbaya girmez.
61.	Gapni gapir uqqanga, Jonni jonga suqqanga.	Sözü söyle alana, kulağında kalana.
62.	Gapni kavlasang gap chiqar. / Gapning tagini gap ochar.	Laf lafı açar.

	Gap gapni ochar, Yomon gapdan qochar.	
63.	Gunohiga yarasha – jazosi.	Kedinin kabahatini önüne koyarlar, öyle döverler.
64.	Go‘zallik – yuzda emas, dilda.	Güzele kırk günde doyulur, iyi huyluya kırk yılda doyulmaz.
65.	Go‘sh t suvaksiz bo‘lmas, sholi – kurmaksiz.	Et kemiksiz, üzüm çöpsüz olmaz. Çöpsüz üzüm olmaz. Çürüksüz ceviz, kemiksiz et olmaz.
66.	“Holva” degan bilan og‘iz chuchimas.	Bal demekle ağız tatlanmaz.
67.	It ing yomon bo‘lsa, otib qutulasan, Oting yomon bo‘lsa, sotib qutulasan, Qo‘shning yomon bo‘lsa, ko‘chib qutulasan, Ering yomon bo‘lsa, ketib qutulasan, Fe‘ling yomon bo‘lsa, o‘lib qutulasan.	Yaman komşu, yaman avrat, yaman at; birinden göç, birinden boşa, birini sat.
68.	Jon tanga mehmon, inson – insonga.	Adam adama yük değil, can gövdeye mülk değil.

69.	Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi.	Ağaran baş, ağlayan göz gizlenmez.
		
70.	Ko'ngil ko'ngildan suv ichar.	Can canın yoldaşdır.
71.	Ko'rmaganni ko'rgani qursin.	Görmemiş görmüş, güle güle ölmüş.
72.	Men senga tegmayman, sen menga tegma.	Bana dokunmayan yılan kırk yıl yaşasın. / Bana dokunmayan yılan bin yaşasın.
73.	Mevali daraxtga tosh otiladi.	Al elmaya taş atan çok olur.
74.	Ming marta eshitgandan bir marta ko'rgan afzal.	Bir defa görmek bin defa okumaktan yeğdir.
75.	Nohaqq qon yerda yotmas.	Ah yerde kalmaz.

76.	Omoch seni to'ydirgay, omboringni to'ldirgay.	Çiftçinin ambarı sabanın ucundadır.
77.	Ota-onasini tanimagan Tangrisini tanimas.	Atasını tanımayan Allahını tanımaz.
78.	Ot – yigitning qanoti.	At yiğidin yoldaşdır.
79.	Ochko'zning o'zi to'ysa ham ko'zi to'ymas.	Acıkan doymam, susayan kanmam sanır.
80.	Ochko'z eshak to'rvani teshadi.	Aç köpek fırın deler.
81.	Ochning ko'zi ekmakda, to'qning ko'zi hikmatda.	Açın gözü ekmek teknesinde olur.
82.	Og'ir toshni suv oqizmas.	Ağır yongayı su kaldırmaz.
83.	Pul bo'lsa – changalda sho'rva.	Altın anahtar her kapıyı açar.
84.	Qarindoshdan qarz olma, qarindoshga qiz berma, qarindoshdan qiz olma, qarindoshga qiz berma.	Akrabayla ye, iç, alışveriş etme.
85.	Qars ikki qo'ldan chiqadi.	Bir elin nesi var, iki elin sesi var.
86.	Qilmish – qidirmish.	Etme bulma dünyası. / Eden bulur.
87.	Qorni to'qning qorni ochdan xabari yo'q. / Qorni to'qning qorni och bilan nima ishi bor?	Açın halini tok bilmez, hastanın halini sağ bilmez.
88.	Qozonda bori cho'michga chiqadi. (Har kim ekkanini o'radi).	Çanağa ne doğrarsan, kaşığa o çıkar.

89.	Qush uyasida ko'rganini qilar.	Ağaca çıkan keçinin dala bakan oğlağı olur.
90.	Sabrning tagi sariq oltin.	Sabrın sonu selâmettir. / Sabrın meyvesi tatlıdır.
91.	Sinalmagan otning sirtidan o'tma.	Bilinmedik aş ya karın ağrıtır, ya baş.
92.	Sichqon sig'mas iniga, g'alvir bog'lar dumiga.	Fare (sıçan) deliğe sığmamış, bir de kuyruğuna (kıçına) kabak bağlamış.
93.	Sut bilan kirgan jon bilan chiqar.	Can çıkmayınca huy çıkmaz.
94.	Temirni qizig'ida bos.	Yara, sıcakken sarılır.
95.	Teng tengi bilan, tezak qopi bilan.	Baz bazla, kaz kazla, kel tavuk topal horozla.
96.	To'qlik nelar dedirmas, ochlik nelar yedirmas.	Aç ne yemez, tok ne demez.
97.	Vaqting bor – naqding bor.	Vakit, nakittir.
98.	Yaxshi so'z ilonni inidan chiqarar.	Acı söz insani dininden, tatlı söz yılanı deliğinden çıkarır.
99.	Yigit ish bichuvda bilinar, tuya – suv kechuvda.	Adam iş başında belli olur.
100.	Yaxshi otga bir qamchi, yomon otga ming qamchi.	Adam olana bir söz yeter.
101.	Yegan og'iz uyaladi.	Ağız yemese yüz utanmaz.
102.	Yerga boqardan yer ham qo'rqar.	Adamın yere bakanından, suyun sessiz akanından kork.
103.	Yetti o'lchab, bir kes.	Bin ölç, bir kes.
104.	Yo'q tovuqdan bir tuxum yaxshi. / Yo'qdan ko'ra bor.	Bugünkü tavuk yarınki kazdan iyidir.

105.	Yo'qolgan pichoqning sopi oltin.	Kaçan balık büyük olur.
106.	O'ng qo'ling bersin, chap qo'ling bilmasin.	Bir elinin verdiğini öbür elin görmesin.
107.	O'rgangan ko'ngil o'rtansa qo'yimas.	Alışmış kudurmuştan beterdir.
108.	O'rmonga o't ketsa ho'l-u quruq barobar yonar.	Kurunun yanında yaş da yanar
109.	O'ychi o'yini o'ylaguncha tavakkalchi ishini bitiribdi.	Akıllı düşünesiye kadar deli oğlunu everir. / Akıllı köprü arayıncaya dek deli suyu geçer.
110.	Shamol bo'lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi.	Ateş olmayan yerden duman çıkmaz. / Rüzgâr esmeyince yaprak kıpırdamaz (dal oynamaz).
111.	Sherning o'ligi ham ot hurkitadi.	Cesurun bakışı korkağın kılıcından keskindir.
112.	Chiqmagan jondan – umid.	Çıkmadık candan ümit kesilmez.

O'ziga xos maqollar

Turk folklorida ham, o'zbek folklorida ham genetik aloqalari kuzatilmaydigan, bir-biriga na shaklan, na mazmunan o'xshamaydigan, bir-birini takrorlamaydigan maqollar ham mavjudki, ular folklorning katta qismini tashkil qiladi. Maqollar orasidagi bunday jiddiy farqlarning sababini asosan ikki holat bilan izohlash mumkin: a) nisbatan keyinroq paydo bo'lgan zamonaviy maqollar; b) boshqa tillardan o'zlashib, tarjima qilingan maqollar. Bu kabi boshqa xalqlarda takrori uchramaydigan maqollar shu xalqning milliy koloritini ko'rsatib berishda asosiy rol o'ynaydi, ularda millatning o'ziga xos urf-odatlar va an'analari; qadriyatlarining parchalari jamlanadi. Shuni ham aytish kerakki, bunday maqollarni qardosh tilga tarjima qilib, qardosh xalqlarga taqdim etsak, ularning mazmuni, qo'llanish o'рни, maqsadi va sababini osongina farqlab olish mumkin. Quyida berilgan maqollarning tarjimasi kuzatilsa, bir haqiqatga guvoh bo'lish mumkin: agar o'zbek tilida uchramaydigan biror turk maqolini tarjima qilsak, bu maqol butun o'zbek xalqi uchun tushunarli bo'lish bilan birga, bemalol o'z maqollarimiz kabi o'рни bilan foydalanishimiz ham mumkin. Turkchaga o'g'irilgan o'zbek maqollari haqida ham ayni fikrlarni ayta olamiz.

Turkcha		O'zbekcha tarjimasi
1.	Av vuranın değil alanın.	Ov otganniki emas, olganniki.
2.	Baba oğluna bir bağ bağışlamış; oğul babaya bir salkım üzüm vermemiş.	Ota o'g'ilga bir bog' beribdi, o'g'il otaga bir shingil uzum bermabdi.
3.	Babamın adı Hıdır, elimden gelen budur.	Otamning oti Hidir, qo'limdan kelgani budir.
4.	Bakmakla usta olunsa (öğrenirse), köpekler (kediler) kasap olurdu.	Qaragan bilan usta bo'linsa (o'rganilsa), itlar (mushuklar) qassob bo'lardi.
5.	Beni sokmayan yılan bin yıl yaşasın.	Meni chaqmagan ilon ming yil yashasin.

6.	Besle kargayı oysun gözünü.	Boqqin qarg'ani, o'ysin ko'zingni.
7.	Bir elma bin akçaya, soy; bin armut bir akçaya, soyma. / Elmayı soy da ye, armudu say da ye.	Bir olma ming aqcha bo'lsa ham arch; mingta nok bo'lsa ham archma. / Olmani archib ye, nokni sanab ye.
8.	Bir evde dü zen (iki karı) olsa, düzen olmaz (o evde).	Bir uyda ikki xotin bo'lsa, u uyda tartib bo'lmas.
9.	Bir selam bin hatır yapar.	Bir salomning ming xotiri bor.
10.	Borç yiğidin kamçısıdır.	Qarz yigitning qamchisidir.
11.	Borçlunun döşeği ateşten olur.	Qarzdorning to'shagi olovdan bo'lar.
12.	Bükemediğin eliöp.	Bukolmagan qo'lingni o'p.
13.	Cahil ölmektense doğmadan ölmek yeğdir.	Johil o'lgandan tug'ilmay o'lgan yaxshi.
14.	Cambaz ipte, balık dipte gerek.	Dorboz ipda, baliq tubda kerak.
15.	Çarşı iti ev beklemez.	Bozorning iti uy qo'riqlamas.
16.	Çürük tahta çivi tutmaz.	Chirik taxtada mix turmas.
17.	Denize düşen yılana sarılır.	Dengizga tushgan ilonni quchadi.
18.	Dilenciye borçlu olma, ya düğünde ister ya bayramda.	Tilanchidan qarz olma, yo to'yda so'rar, yo bayramda (hayitda).
19.	Dilim seni dilim dilim dileyim, başıma geleni senden bileyim.	Tilim, seni tilim-tilim tilayin, boshimga kelganni sendan bilayin.
20.	Doğru söyleyen dokuz köyden kovulur.	Rost so'zlagan to'qqiz qishloqdan quvilar.

21.	Düğün olur iki kişiye, kaygısı düşer deli komşuya.	To'y ikki kishiniki, tashvishi telba qo'shniniki.
22.	Düşman düşmana gazel (Yasin) okumaz.	Dushman dushmanga g'azal (Yosin) o'qimas.
23.	Eğri oturup doğru konuşmak lazım.	Egri o'tirib to'g'ri gapirish kerak.
24.	El için ağlayan gözden olur.	Boshqalari uchun yig'lagan ko'zsiz qolar.
25.	Et kokarsa tuzlanır, ya tuz kokarsa ne yapılır?	Go'sht hidlansa tuzlanar, tuz hidlansa-chi?
26.	Eşek hoş laftan ne anlar?	Eshak yaxshi gapni qayerdan tushunsin?
27.	Faydasız baş mezara yaraşır.	Foydasiz bosh qabristonga yarashar.
28.	Gafile kelim, nafile kelim.	G'ofilga gap – behuda gap.
29.	Gençlikte para kazan, kocalıkta kur kazan.	Yoshlikda pul qozon, keksayganda os qozon.
30.	Gezen ayağa taş değer.	Sayoq oyoqqa tosh tegadi.
31.	Gökten yere yağar, yerden göğe değil.	Osondan yerga yog'adi, yerdan osmonga emas.
32.	Gökyüzünde düğün var deseler kadınlar merdiven kurmaya kalkar.	Ko'kda to'y bor desalar, ayollar (osmonga) narvon qo'yishga urinadi.
33.	Hasta ol benim için, öleyim senin için.	Xasta bo'lsang men uchun, o'laman sen uchun.
34.	Hayır dile komşuna, hayır gele başına.	Yaxshilik tila qo'shningga, yaxshilik kelar boshingga.
35.	Her kuşun eti yenmez.	Har qushning go'shti yeyilmaydi.

36.	Her yigidin bir yoğurt yiyişi vardır.	Har yigitning bir qatiq ichishi bordir.
37.	Herkes aqlını pazara çıkarmış, yine kendi aqlını almış.	Hamma aqlini bozorga chiqaribdi, yana har kim o'z aqlini sotib olibdi.
38.	Herkes bildiğinin alimi, bilmediğinin cahilidir.	Hamma bilganining olimi, bilmaganining johilidir.
39.	Hilekardan yumurta alan, içinde sarısını bulamaz.	Hiylakordan tuxum olgan ichidan sarig'ini topolmaydi.
40.	Horoz ölür, gözü çöplükte kalır.	Xo'roz o'lar, ko'zi axlatxonada qolar.
41.	İki analı sütten, iki karılı bitten ölür.	Ikki onali sutdan, iki xotinli bitdan o'lar.
42.	İslamın şartı beş, altıncısı insaf demişler.	Islomning besh farzi bor, oltinchisi insof deytilar.
43.	İstenmeyen aş, ya karın ağrıtır ya baş.	Istalaman osh yo qorin og'ritar, yo bosh.
44.	İtin (köpeğin) ahmağı baklavadan pay umar.	Itning ahmog'i pahlavadan ulsuh kutar.



45.	İtin (köpeğin) duası kabul olsa(ydı) gökten kemik yağar(dı).	Itning duosi qabul bo'lsa, ko'kdan suyak yog'ardi.
46.	İtme el kapısını el ucuyla, iterler kapını kol gücüyle.	Begona eshikni chertma, sening eshigingni teparlar. / Begona eshikni sekir itarsang, sening eshigingni buzib kirarlar.
47.	Karnı açtan korkma, gözü açtan kork.	Qorni ochdan qo'rqma, ko'zi ochdan qo'rq.
48.	Keçiye rakı içirmişler kurdun evini sormuş.	Echkiga raki (aroq) ichirishgan ekan, bo'rining uyini so'rabdi.
49.	Kırkından sonra saza başlayan kıyamette çalar.	Qirqidan keyin soz chalishni boshlagan mozorida chaladi.
50.	Kişiyi vezir eden de karısı, rezil eden de.	Kishini vazir qiladigan ham xotini, sharmanda qiladigan ham.
51.	Komşu boncuğunu çalan gece takınır.	Qo'shni munchog'ini o'g'irlagan tunda taqadi.
52.	Komşunun suali komşudan sorulur.	Qo'shnining savoli qo'shnidan so'raladi.
53.	Köpek suya düşmeyince yüzmeyi öğrenmez.	It suvga tushmaguncha suzishni o'rganolmaydi.
54.	Köpeğin ahmağı baklavadan pay umar.	Itning ahmog'i pahlavadan ulush kutar.
55.	Kör ölür badem gözlü olur, kel ölür sırma saçlı olur.	Ko'r o'lsa bodom ko'zli bo'lar, kal o'lsa oltin sochli bo'lar.
56.	Körden gözlü, topaldan ayaklı, deliden deli.	Ko'rdan ko'zli, oqsoqdan oyoqli, ahmoqdan ahmoq (tug'ilar).

57.	Körler memleketinde şaşılar padişah olur.	Ko'rlar yurtida g'ilaylar podshoh bo'lar.
58.	Kuma gemisi yürümüş, elti gemisi yürümemiş.	Kundosh kemasi yuriydi, ovsin kemasi yurimaydi.
59.	Kurtla görüşürsen köpeğini yanından ayırma. / Kurda konuk giden köpeğini yanında götürür.	Bo'ri bilan uchrashar bo'lsang, itingni yoningdan ayırma. / Bo'rinikiga mehmonga borgan itini yonida olib boradi.
60.	Kuzusuna kıymayan kebab yiyemez.	Qo'zichoqqa ko'zi qiymagan kabob yemaydi.
61.	Küçük suda büyük balık olmaz.	Kichik suvda (ko'lmakda) katta baliq bo'lmas.
62.	Lâfla peynir gemisi yürümez.	Gap bilan pishloq kemasi yurmas.
63.	Lafla pilav pişerse deniz (dağ) kadar yağı benden.	Gap bilan osh pishsa, dengizcha (tog'cha) yog'mendan.
64.	Mal adama hem dost, hem düşmandır.	Boyluk odamga ham do'st, ham dushmandir.
65.	Mal melamati örter.	Boyluk malomatni bekitar.
66.	Mart kapıdan baktırır, kazma-kürek yaktırır.	Mart (oyi) eshikdan boqtirar, belkurakni (sopini) yoqtirar.
67.	Martta yağmasın, nisanda dinmesin.	Martda yog'masin, aprelda tinmasin.
68.	Mazlumun ahı, indirir şahı.	Mazlumning ohi qulatar shohni.

69.	Misafir on kismetle gelir; birini yer, dokuzunu (evde) bırakır.	Mehmon o'nta nasiba bilan keladi, birini yeb, to'qqizini (mezbonnikida) qoldirib ketadi.
70.	Misafir umduğunu değil bulduğunu yer.	Mehmon kutganini emas, topganini yeydi.
71.	Minareyi çalan kılıfını hazırlar.	Minorani o'g'irlagan g'ilofini ham hal qiladi.
72.	Mirasa "nereye gidiyorsun?" demişler, "esip savurmaya" demiş.	Merosga "Qayerga ketyapsan?" desalar, "Sovrulip ketishga" debdi.
73.	Mühür kimde ise Süleyman odur.	Muhr kimda bo'lsa, Sulaymon – o'sha.
74.	Mürüvvete endaze olmaz.	Muruvvatning andozasi yo'q.
75.	Namaza meyli olmayanın kulağı ezanda olmaz.	Namozga mayli bo'lmaganning qulog'iga azon kirmaydi.
76.	Nerde birlik, orda dirlik.	Birlik bo'lgan yerda tiriklik bo'lar.
77.	Nisan yağmuru: altın araba, gümüş tekerlek.	Aprel yomg'iri: oltin arava, kumush g'ildirak.
78.	O hacı, bu hacı, kim olacak boyacı?	U hoji, bu hoji, kim bo'ladi bo'yoqchi?

79.	Okumayı sevmeyene dokuz hoca az.	O'qishni yoqtirmaganga to'qqiz ustoz oz.
		
80.	Otu çek, köküne bak.	O'tni yul, ildiziga boq.
81.	Öfkeyle kalkan, zararlar (ziyanlar) oturur.	Jahl bilan turgan zarar (ziyon) bilan o'tiradi.
82.	Ölmüş koyun (eşek) kurttan korkmaz.	O'lgan qo'y (eshak) bo'ridan qo'rqmas.
83.	Para ile imanin kimde olduđu belli olmaz (bilinmez).	Pul bilan iymonning kimdaligini bilib bo'lmaydi.
84.	Para isteme benden, buz gibi soğurum senden.	Pul so'rama mendan, muzday soviyman sendan.
85.	Pilâv yiyen, kaşığını yanında (belinde) taşır.	Palov yeydigan (odam) qoshig'ini yonida (belida) tashiydi.
86.	Pilâvdan dönenin kaşığı kırılın.	Oshdan qaytganning qoshig'i sinsin.
87.	Sağ baş yastık istemez.	Sog' bosh yostiqlik istamas.
88.	Talihsiz hacıyı deve üstünde yılan sokar.	Omadsiz hojini tuyaning ustida ilon chaqadi.

89.	Tarlada izi olmayanın harmanda yüzü olmaz.	Dalada izi bo'lmaganning xirmonda yuzi bo'lmas.
90.	Tavşan dağa küsmüş, dağın haberi olmamış.	Quyvon tog'dan arazlabdi, tog'ning bundan xabari bo'lmabdi.



91.	Sarimsağı gelin etmişler, kırk gün kokusu çıkmamış.	Sarimsoqni kelin qilibdilar, qirq kun hidi chiqmabdi.
92.	Sen dost kazan, düşman ocağın başından çıkar.	Sen do'st qozon, dushman o'choq boshidan chiqar.
93.	Serkeş öküz soluğu kasap dükkanında alır.	Sarkash ho'kiz qassobxonada tin olar.
94.	Şeytanla ortak buğday eken samanını alır.	Shayton bilan sheriklikda bug'doy ekkan somonini oladi.

95.	Şubatın sonundan, martın onundan kork.	Fevralning oxiridan, martning (ilk) o'n kunidan qo'rq.
96.	Ulular köprü olsa basıp geçme.	Ulug'lar ko'prik bo'lsa, bosib o'tma.
97.	Utanma pazar, dostluğu bozar.	Uyatchan bozor, do'stlikni buzar.
98.	Vermeyince Mabud, neylesin Mahmud.	Bermasa Ma'bud, naylasin Mahmud?
99.	Yarası olan gocunur.	Yarasi bor qashinadi.
100	Yazın gölge hoş; kışın çuval boş.	Yozda soya xush kelsa, qishda qop bo'sh bo'lar.
101	Yılanın başı küçükken ezilir	Ilonning boshini kichikligida ezish kerak.
102	Yılan soka uyumuş, aç kalan uyumamış.	Ilon chaqqan uxlabdi, och qolgan uxlolmabdi.
103	Yorgan gitti, kavga bitti.	Ko'rpa ketdi, janjal bitdi.

Bu maqolning kelib chiqishi latifa bilan bog'lanadi: Qish kunlaridan birida yarim tunda Nasriddin Afandi eshigi oldida bir shovqinni eshitibdi. Havo sovuq uchun ko'rpasini ustiga o'rab tashqariga chiqibdi. Bir necha kishining janjallashayotganiga guvoh bo'libdi. Ko'rpasini bir chekkaga otib, darhol ularni ajratishga kirishibdi. Bu orada bir shovvoz Xo'ja Nasriddinning ko'rpasini o'g'irlab qochibdi. Birozdan so'ng Xo'ja Nasriddinning ham g'ayrati sabab janjalga nuqta qo'yilibdi, tomonlar yarashibdi. Ammo Xo'ja Nasriddin uyiga ko'rpasiz qaytibdi. Xotini Afandidan "Janjal nimadan chiqibdi, bila oldingizmi" deb so'rabdi. Xo'ja Nasriddin esa "Ey xotin, so'rab nima qilasan? Janjalning sababi bizning ko'rpamiz ekan: Ko'rpa ketdi, janjal bitdi" deb javob beribdi.

O'zbekcha		Turkcha tarjimasi
1.	Anqov o'yin buzar, Tentak – uyin.	Aptal oyunu bozar, deli evini bozar.
2.	Ayron ichgan qutular, Chelak yalagan tutilar.	Ayran içen kurtulur, kovayı yalayan tutulur.
3.	Baxt – sandiqda, kaliti – osmonda.	Mutluluk sandıkta, anahtarı gökyüzünde.
4.	Bilmas tabib jon olar.	Cahil hekim can alır.
5.	Bir gapning qirq fahmi bor.	Bir cümlemin kırk tane anlamı vardır.
6.	Bir kunga ho'kiz o'lmas, ikki kunga egasi bermas.	Öküz bir günde ölmez, sahibi (onu) iki güne vermez.
7.	Bir qizga yetti qo'shni – ota-ona.	Bir kız için yedi komşu anne-babadır.
8.	Birov birov uchun qozon osmas.	El el için kazan kurmaz.
9.	Bol yegan og'izga baliq yarashmas.	Bal yiyen ağza balık yakışmaz.
10.	Bu eshak – o'sha eshak, To'qimi boshqa eshak.	Bu eşek o eşektir, semeri başka eşektir.
11.	Daraxt bir joyda ko'karar.	Ağaç bir yerde yetişir.
12.	Dasturxon ustida dushman ham do'st ko'rinar.	Sofra etrafında düşman bile dost gibi gözükür.
13.	Davlat bitsa yomonga O'zin sanar xoqonga.	Devlet verilirse kötüye kendini han sanır.
14.	Elak so'rashga ham og'iz kerak.	Elekt istemek için bile ağız gerekir.
15.	Eshakni yukka olib kel Yoki yukni – eshakka.	Eşegi yüke getir Ya da yükü eşeğe getir.

16.	Eshakning hangrashi to'yda avjga chiqar.	Eşəğin anırması düğünde zirveye çıkar.
17.	Go'zallik ilm-u ma'rifatda.	Güzellik ilim ve marifettedir.
18.	Falon yerda oltin bor, Borsang, paqir topilmas.	Filan yerde altın var, Oraya gitsen kova bulamazsın.
19.	Filbonga oshna bo'lsang, Darvozungni katta qil.	Fil bakıcısıyla arkadaş olsan, kapını büyük yap.
20.	Hisobini bilgan – bir yil yetim, Hisobini bilmagan – o'lguncha yetim.	Hesabını bilen bir yıl yetim kalır, Hesabını bilmeyen ise ölünceye kadar yetim kalır.
21.	Hisobini bilmagan hamyonidan ayrilar.	Hesabı bilmeyen cüzdanından ayrılır.
22.	Igna bilan bitadigan ishga juvoldiz tiqma.	İğne ile bitecek işe çuvaldızı sokma.
23.	Igna o'g'irlagandan sigir yo'qotgan gumonsirar.	İğne çalmıştan ineğini kaybeden işkillenir.
24.	Iliq so'z – shakar, Sovuq so'z – zahar.	Sıcak söz şekerdir, soğuk söz zehirdir.
25.	Ilmsiz imomdan tuxum qiladigan tovuq yaxshi.	İlimsiz imamdan yumurtlayan tavuk yeğdir.
26.	Ish desa, ayyor, Osh desa, tayyor.	Çalış denince kurnaz, aş denince hazır.
27.	Kar qo'y ikki hurkar.	Sağır koyun iki defa korkar.
28.	Kemaga tushganning joni bir.	Gemiye binenlerin canı birdir.
29.	Kemali kelsa, qayıqli qochar.	Gemili gelince kayıklı kaçır.
30.	Kiradigan eshigingni qattiq yopma.	Girecek kapını çarparak kapatma.

31.	Ko'ngil kirin yetti daryoda yuvsa ham ketmas.	Gönüldeki kir, yedi ırmakta yıkansan da çıkmaz.
32.	Ko'p gapirgandan ko'p ish kutma.	Çok konuşandan çok iş bekleme.
33.	Ko'r tovuqqa har narsa don ko'rinar.	Kör tavuğa her şey tahıl gibi görünür.
34.	Merosdan yumruq tegsa ham ol.	Mirastan hakkın yumruk olsa bile al.
35.	Mozorga o'lik kelmasa, Go'rkov ketmonni chalar.	Mezara ölü gelmese, mezarıcı kazmayı çalar.
36.	Mozoring yaqin bo'lsa ham, Bozoring yaqin bo'lmasin.	Mezarın yakın olsa bile, Pazarın yakın olmasın.
37.	Odam ochlikdan o'lmas, ordan o'lar.	Adam açlıktan ölmez, namustan ölür.
38.	Olim adashsa, dunyo qoqilar.	Bir bilim adamı yanılıyorsa dünya tökezler.
39.	Orsizga tupursang, yomg'ir der.	Arsıza tükürürsen, yağmur yağıyor der.
40.	Och otasini tanimas.	Aç babasını tanımaz.
41.	Och qolgan nondan gapirar.	Aç ekmekten bahseder.
42.	Palovning qamchisi – choy.	Pilavın kırbacı çaydır.
43.	Poraxo'rning ko'zi beshta, Qo'li – to'rtta.	Rüşvet alan kişinin beş gözü, dört eli vardır.
44.	Puli yo'q hamyon tikar.	Parası yok cüzdan diker.
45.	Qarindoshli qarimas.	Akrabalı (insan) yaşlanmaz.
46.	Qarz — muhabbatning qaychisi.	Borç aşkın makasıdır.

47.	Qarg'aga sovun, Ahmoqqa nasihat kor qilmas.	Kargaya sabun, ahmağa nasihat kar etmez.
48.	Qassobning tushiga echki kirar.	Kasap rüyasında keçiyi görer.



49.	Qatiq ichgan qutular, Xurmacha yalagan tutilar.	Yoğurt içen kurtulur, hurma yalayan yakalanır.
50.	Qattiq baqirgan bilan qo'shiqchi bo'lmas.	Yüksek sesle bağırarakla şarkıcı olunmaz.
51.	Qaynsingil – yarim kundosh.	Görümce, yarı kumadır.
52.	Qirq igna bir juvoldiz bo'lmas.	Kırk iğne bir çuvaldız etmez.
53.	Qovuni yo'q kuz bo'lganini bilmas, Sovuni yo'q yoz bo'lganini bilmas.	Kavunu olmayan sonbahar olduğunu bilmez, Sabunu olmayan yaz olduğunu bilmez.
54.	Quruq yog'och egilmas.	Kuru ahşap eğilmez.

55.	Quyruğ'ini bossang, sichqon ham chiyillaydi.	Kuyruğuna bastığında fare de ses çıkarır.
56.	Qo'ling yetgan shoxning shaftolisi shirin.	Elinin yettiği dalın şeftalisi tatlıdır.
57.	Qo'rqqoqa ko'lankasi – Azroil.	Korkağa gölgesi Azrail'dir.
58.	Qo'shni – qo'shnining bozori.	Komşu komşunun pazarıdır.
59.	Qo'shnimning bilgani – hammaning bilgani.	Komşum bildi – herkes bildi.
60.	Serdaraxt qishloqni sel olmas.	Ağaçları çok olan köy sel altında kalmaz.
61.	Soqov ko'p gapirar, Cho'loq ko'p yugurar.	Dilsiz çok konuşur, Sakat çok koşar.
62.	Sotmasning moli qimmat.	Satmayanın malı pahalı olur.



63.	Sulaymon o'ldi, devlar qutuldi.	Süleyman öldü, devler kurtuldu.
64.	Suvsagan o'lmas, hovliqqan o'lar.	Susayan ölmez, acele eden ölür.
65.	Tabibga ishonmagan bemor tuzalmas.	Doktoruna güvenmeyen hasta iyileşemez.
66.	Tekin bo'lsa mix yut.	Bedavaysa çiviye ye.
67.	Tentakning aqli tushdan keyin kirar.	Ahmağın akli öğleden sonra gelir.
68.	Teva o'g'irlagan teva bo'yi chuqur qazir.	Deve çalan, deve boyunca çukur kazar.
69.	Tirikchilik sherni ham tulki qilar.	Geçim derdi aslanı bile tilki yapar.
70.	Tovoq kelganda, saboqni qo'y.	Tabak gelince dersi bırak.
71.	Tovuqni yesang, bir yeysan, Tuxumini yesang, ming yeysan.	Tavuğu yersen bir kere yersin, Yumurtayı yersen bin kere yersin.
72.	Tuya hammomni havas qilar.	Deve hamamı arzu eder.
73.	Uch kishi bilgan sirni Yuz kishi bilar.	Üç kişinin bildiği sırrı, yüz kişi bilir.
74.	Uch kishi bir bo'lsa, Biri – Xizir.	Üç kişi bir olunca, biri Hızır'dır.
75.	Xatoning yo'ldoshi – jazo.	Hatanın yoldaşı cezadır.
76.	Xotini o'lgan qizli ovulga qarab yig'lar.	Karısı ölen, kızlı köye bakarak ağlar.
77.	Yalangoyoqqa daryoning ikki tomoni ham bir.	Çıplak ayaklı biri için nehrin iki yakası da aynıdır.

78.	Yaqin qiz – o‘g‘il hisobi, Uzoq qiz – o‘lik hisobi.	Yakındaki kız oğlan gibidir, Uzaktaki kız ölü gibidir.
79.	Yaxshi rahbar – chin padar.	İyi bir lider gerçek bir babadır.
80.	Yaxshiga – ishorat, Yomonga – kaltak.	İyiye işaret, kötüye dayak.
81.	Yaxshiga hazil qilsang, ipakday bo‘lar, Yomonga hazil qilsang, eshakday bo‘lar.	İyiye şaka yaparsan ipeğe benzer, Kötüye şaka yaparsan eşeğe benzer.
82.	Yetim qizning to‘yini yomg‘ir buzar.	Öksüz kızın düğününü yağmur bozar.
83.	Yetmish yulduz yarim oyga tatimas.	Yetmiş yıldız yarı ay olmaz.
84.	Yer to‘ydirar, o‘t kuydirar.	Toprak besler, ateş yakar.
85.	Yolg‘onchi horimas, O‘g‘ri qarimas.	Yalancı yorulmaz, hırsız yaşlanmaz.
86.	Yolg‘onchi o‘likni guvoh tortar.	Yalancı, ölü bir adamı şahit gösterir.
87.	Yomg‘irda ot tanlama, Hayitda – qiz.	Yağmurda at seçme, Bayramda – kız.
88.	Yozga yetsang, qish kuningni unutma.	Yaz mevsimine yetiştiğinde kış gününü unutma.
89.	Yurishni bilmasang, sakrashga urinma.	Yürümeyi bilmiyorsan zıplamayı deneme.
90.	Yo‘ldagi ikki qushdan, Qo‘ldagi bir qush yaxshi.	Yoldaki iki kuştan eldeki bir kuş yeğdir.

91.	Zargar firibgar bo'lsa, oltin zanglar.	Kuyumcu sahtekar ise altın paslanır.
92.	O'g'ri oydindan qo'rqar.	Hırsız aydınlıktan korkar.
93.	O'g'riga o'g'rilikdan mol kirmasa, O'z bo'rkini o'g'irlar.	Hırsız hırsızlıktan bir kazanç elde etmezse, kendi parasını çalar.
94.	O'g'ridan qolgani – qaroqchiniki.	Hırsızdan geriye kalan, soyguncunundur.
95.	Shaharda bir xotin bo'lsa, Zargar ochidan o'lmas.	Şehirde bir karı olsa, Kuyumcu açlıktan ölmez.
96.	Sher qutursa, oyga sapchir.	Aslan kudursa aya atlar.
97.	Sheriklashib ishlaganning yuragi sherday bo'lar.	Ortaklaşa çalışanın yüreği aslan gibi olur.
98.	Sherikchilik – bir yilchilik, Qudachilik – ming yilchilik.	Ortaklık bir yıldır, Dünürlük bin yıldır.
99.	Chaynamay yegan – og'rimay o'lar.	Çiğnemedən yiyen, acı çekmeden ölür.
100	Chumolining bir yil yiqqani – Tuyaning bir yutgani.	Karıncanın bir yıl topladığı – devenin bir yudumu.

Oynisa Xojiyeva

O‘ZBEK VA TURK MAQOLLARINING TASNIFI

Lug‘at muallifning tahririda taqdim etilgan.

Lug‘atda keltirilgan faktlar, atoqli otlar va boshqa ma’lumotlarning aniqligiga, hamda imloviy xatolar uchun javobgarlik muallifning zimmasidadir.



“Bookmany print” nashriyoti

Nashriyot tasdiqnoma raqami № 022246. 28.02.2022-y.

Bosishga ruxsat etildi: 26.09.2025.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 ¹/₁₆

Nashriyot bosma tabog‘i 12,2. Shartli bosma taboq 12,7.

Adadi 100 nusxa. Ofset bosma usulida bosildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

“BOOKMANY PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

E-mail: bookmany_print@mail.ru

t.me/ Bookmanyprint ☎ +998 99 180 97 10